



ZAMONAVIY STOMATOLOGIK MATERIALLAR VA ULARNING AFZALLIKLARI

Suyunova Roziya A'zam qizi

Annotatsiya: Maqola zamonaviy stomatologik materiallari va ularning afzalliklari , zamonaviy asbobuskunalarning hozirgi kunda qanchalik katta ahamiyat kasb etishi nafaqat quyallik balki, sifatli tibbiy muolaja uchun qanchalik muhimligi ,va shu bilan bir qatorda ularning kamchiliklari ,sterilizatsiya asboblari va sterilizatsiya qay darajada muhimligi qadimgi tish davolashda va tish jarrohligida ishlatilgan asboblari ,og'iz bo'shlig'ida tish protezlarini qo'yishda qanday materiallardan va asbob uskunalaridan foydalanish haqida so'z olib borilgan.

Kalit so'zlar: stomatologik mikroskop ,RVG , nakonochniklar ,avtoklafka, suxojar ,terapevtik stomatologiya ,ortopedik stomatologiya,protezlar

Kirish



Stomatologiya yo'nalishi tibbiyotning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib unda davolash va diagnostika qo'yishda ko'plab zamonaviy asbob uskuna va materiallardan foydalaniladi . ularning asosiy maqsadi tashxis qo'yishni yengillashtirish , davolash jarayonini samarali va bemor uchun og'riqsiz va yuqori sifatli natijani ta'minlashdir. Shulardan biri stomatologik mikroskopdir bundan asosan jarrohlik amaliyotida qo'llaniladi asosiy maqsad tishning ichki kanallari va nozik anatomic tuzilmalarini ko'rishdir. Yana bir keng qo'llaniladigan asboblardan biri RVG (raqamli roentgen diagnostikasi) ular tish va jag' suyaklarini yuqori aniqlikdagi suratlarini olishga yordam beradi.Davolashda keng qo'llaniladigan yana bir uskuna nakonochniklardir bularning asosan 3 xil turi bolib hozirga zamon talablariga turbinali nakonochniklar yuqori darajada javob beradi .Asosan tish to'qimalarini burg'ulash va kavitalarni shakllantirish uchun ishlatiladi. Yuqori tezlikka ega va bemorda og'riqni kamaytiradi shu bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud bo'lib bular: bosim kuchi past , tez qiziydi va suv purkagich majburiy.SHuningdek bemor bilan ishlayotganda gigiyena qoidalariga rioya qilish juda ham muhim sanaladi chunki ko'pchilik virus kasalliklari og'iz bo'shlig'I orqali yuqadi shuning uchun stomatologik xonada sterilizatsiya shkaflarining bo'lishi majburiy . Bugungi kunda zamonaviy sterilizatsiya uskunali yuqori talablarga javob bera oladi shulardan bir nechitasi ko'rsatib o'tilgan . Avtoklaf— zamonaviy va ancha quyal bo'lib eng ko'p qo'llaniladi u yuqori bosim ostids bug' yordamida mikroorganizmlar va ularning sporalarini yo'q qiladi asosan metal asboblari va pinset, ekskavotar frezlar , jarrohlik asboblari sterilizatsiya qilish uchun ishlatiladi .Bu qurilma tezkor , havfsiz bo'lib , yuqori samaradorlikka ega lekin shunga qamay bir necha kamchiliklari mavjud bo'lib ba'zi asboblari karroziyaga uchrashi mumkin . Keying qurilma : quruq havo sterilizatsiyasi ya'ni suxojar . Bu qurilma 160-180 °C issiqlikda uzoq vaqt davomida mikroblarni o'ldiradi .Metall asboblari , shisha idishlar,



ignalar sterilizatsiya qilinadi va soda va ishonchli va bu qurilmada ham kamchiliklar mavjud bo'lib uzoq vaqt talab qiladi va ayrim materiallarga zarar yetkazishi mumkin .

Terapevtik stomatologiya — shifokor bemor tishlarini saqlab qolish uchun unga kerakli muolaja qiladi . Qadimda tishi og'rigan bemorga og'riqni qoldirish qoldirish uchun <<dori vositalari>> ko'katlardan tayyorlangan damlamalar malhamlar berilgan va agarda tish olinishi kerka bo'ladigan bo'la ombirdan foydalanishgan va bu ishlarni sartaroshlar bajarishgan . Hozirgi kunda esa bu ishlar bilan shug'illanuvchi shifokorlar bo'lib bemorga sifatli hizmat ko'rsatish uchun zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori darajadagi qurilma va uskunalaridan foydalanishadi. Bu qurilmalar bemor uchun og'riqni kamaytirish va o'zini ishonchli xis qilishi uchun yordam bersa shifokor uchun aniq tashxis qo'yish va tezroq hizmat ko'rsatishda qo'l.

Ortopedik stomatologiya — tish qatori nuqsonini to'ldirish . Bunda asosan protezlardan foydalaniladi Ortopedik davolash uchun daslabki tekshiruv asboblari: Latok, kuzgular, zond, pinat. Bu asboblalar to'g'ri diagnostik tashxis quyishda muhim hisoblanadi , Bemorning holatidan kelib chiqib davolashda yana bir necha asboblalar ishlatiladi : Taassurot olish uchun asboblalar , og'iz bo'shlig'ida protezlarni sinash uchun asboblalar, bolg'a va boshqalar .

Protezlar tish qatori nuqsonlarini to'ldirishda ishlatiladi . Og'iz bo'shlig'idagi tish protezlariga quyidagi fizik , kimyoviy, biologic omillar kompleksi bo'lgan hamda o'ta agressiv kimyoviy muhit bo'lgan so'lak ta'sir etadi . Va ul;ar ovqatni chaynayotganda kuvhli mexanik bosim ta'siriga uchraydi . protez tayyorlangan material organizimga teskari ta'sir ko'rsatadi.Shunga ko'ra tish protezlarini tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar quyidagi talablarga javob berishi kerak . bezarar , og'iz bo'shlig'ida kimyoviy inert bo'lishi kerak , tish qatorlari jipslanganda vujudga keladigan kuch ta'siriga yetarli darajada chidamli ya'ni mexanik jihatdan mustahkam bo'lishi , shakli va hajmini doimiy saqlab turishi kerak . Tish protezlarini tayyorlash uchun qo'llaniladigan qotishmalarning hammasi ham o'zaro bir bemorda mos tushavermaydi .Bunday protezlarni tayyorlash uchun bir necha asboblardan foydalaniladi misol uchun : vacuum mikser , vibrator , spatulalar , freezlar , borlar motor , micromotor,artikulyatorlar, okluzor va boshqalar bu asboblalar asosan sifatli protezlar yasash va bemorga ishonchli hizmat ko'rsatish uchun qo'l keladi

Xulosa

Zamonaviy stomatologiya asbob-uskunolari amalyotda dionostikada , davolash va profilaktika jarayonlarini sezilarli darajada yengillashtiradi. Ularning qo'llanilishi nafaqat shifokor ishining samaradorligini oshiradi , balki bemorlar bemorlar uchun ham yuqori qulaylik va xavfsizlikni ta'minlaydi . Masalan raqamli diognostik uskunalar—RVG va CBCT— tashxis qo'yishda aniqroq ma'lumot beradi , andomotor apekslokator endodontik davolashni tez va oson amalga oshirish imkonini beradi , lazer texnologiyalari esa jarrohlik amaliyotlarini minimal invaziv sharoitda bajarish imkoniyatini bajaradi .SHuningdek intraoral skaner va zamonaviy sterilizatsiya uskunolari stomatologiyada yangi bosqichni boshlab berdi . Ular an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq bo'lib , asoratlarni kamaytiradi va yuqori sifatli natijalarni kafolatlaydi. Umuman olganda , zamonaviy

stomatologik asboblarning keng qo'llanilishi stomatologiya fanining rivojlanishiga xizmat qilmoqda . Ular yordamida tashxis qo'yish aniqligi , davolash sifati, jarrohlik aralashuvlarining xavfsizligi va bemorning umumiy qoniqish darajasi yuqori darajaga ko'tarildi .Shu boisdan stomatologiyada innovatsion asbob-uskunalaridan foydalanish bugungi kunda nafaqat ehtiyoj , balki zamonaviy tibbiyotning ajralmas talabi hisoblanadi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

-
1. Stomatologik asbob va ashyolar (Kornilov H.P, Ibragimova M.X, Rizayev Y.O. va boshqalar)
 2. Ortopedik stomatologiya protezaviyasi (X.I.Irsaliev , Toshkent 2022)
 3. Terapevtik stomatologiya (M.Ziyayeva , R.Bahodirova)
 4. Tish texnikasi va materialshunosligi (H. Rahmonov)nnovatsion
 5. ZAMONAVIY STOMATOLOGIYADA ZAMONAVIY XONA (Turdiyev Abror . Buxoro Innovatsiyon Ta'lim va Tibbiyot Universiteti)
 6. Stomatologik materiallar va uskunalar (G.Ismoilova .Toshkent tibbiyot nashiryoti 2020)
 7. Ortopedik stomatologiya (T.X Abdullayev . Toshkent , 2018.)
-